

# TARIX VA JAMIYAT

HISTORY AND SOCIETY  
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО  
общественный электронный  
ЖУРНАЛ

JOURNAL  
2022

№3

**Бош мұхаррир:**

Пардаев А.Х. ЖДПИ, тарих факультети декани, т.ф.н. доцент.

**Бош мұхаррир ўринбосари:**

Ақчаев Ф.Ш. ЖДПИ, тарих факультети, т.ф.б.ф.д. (PhD), доцент.

**Масъул котиблар:**

Сайдов Ж.О. ЖДПИ, Тарих факультети ўқитувчиси

Хұжанова М. ЖДПИ, Тарих факультети ўқитувчиси

**Таҳририят аъзолари:**

1. Сагдуллаев А.С. – тарих фанлари доктори, Академик,
2. Ахмедшина Ф.А. – тарих фанлари доктори, профессор,
3. Шодмонова С.Б. – тарих фанлари доктори, профессор,
4. Очилова Б.М. – фалсафа фанлари доктори, профессор,
5. Чориев С. – фалсафа фанлари доктори, профессор,
6. Туленова Г. Ж. – фалсафа фанлари доктори, профессор,
7. Пардаев М.Х. – тарих фанлари доктори, доцент,
8. Фойибов Б.С. – тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
9. Ярматов Р. – педагогика фанлари доктори (DSc), доцент,
10. Сайдқосимов А.И. – ф.ф.б. фан доктори (DSc), доцент,
11. Амануллаев А. – ф.ф.б. фан доктори (PhD), доцент,
12. Тошбоев Ф.Э. – тарих фанлари бўйича фан доктори (PhD), доцент,
13. Миркомилов Б. – тарих фанлари номзоди, доцент,
14. Сайдов М. – фалсафа фанлари номзоди, доцент,
15. Гофуров Ж. – тарих фанлари бўйича фан доктори (PhD), доцент,
16. Ҳошимхонов М.Х. – ф.ф.б. фан доктори (DSc), доцент
17. Валиев А.Х. – катта ўқитувчи,
18. Мажидов А.С. – катта ўқитувчи,
19. Каримова Н. – ўқитувчи,

## Тарих ва Жамият илмий журнали

### Jizzax viloyatidagi avliyolar va diniy ulamolar nomi bilan bog'liq bo'lган ziyoratgohlarga sayohat

Abdullayev Shaxobiddin - JDPI, magistranti

**Annantatsiya:** ushbu maqolada Jizzax vohasidagi avliyolar va diniy ulamolar nomi bilan bog'liq bo'lган ziyoratgohlar va ularning kelib chiqish tarixi haqida ma'lumot beriladi. Shu bilan birga, turizm sohasida qilinayotgan ishlar, ya'ni shu ziyoratgohlarning obod qilinishi va qayta ta'mirlanishi o'lkada turizm sohasini rivojlantirishda muhim qadam bo'lishi haqida ham aytib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** “*Qulfisar ota*”, *Xo'ja ibn Isoq*, *Sa'd ibn Abu Vaqqos*, *Sovruk ota*, *Sayfin ota*, “*Usmand*”, *Mavlono Muhammad Peshag'oriy*, “*Qizil kitobi*”,

Istiqlol yillarda respublikaning barcha hududlarida bo'lgani kabi Jizzax viloyatida ham madaniy meros ob'ektlarini asrash, ularni kelajak avlodlarga yetkazish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu ishlar shubhasiz mamlaktimizda Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 29-iyuldagи 269-sonli “Madaniy meros obektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori va “O‘zbekiston Respublikasi madaniy meros obektlari davlat kadastrini yuritish to‘g‘risida”gi Nizom talablarini bajarish maqsadlariga qaratilgan.

So‘nggi yillarda viloyatda davlat muhofazasiga olingan madaniy meros ob'ektlariga qaratilayotgan alohida e'tibor tufayli ziyorat qiluvchilar sonining muntazam ortib borishi kuzatilmoqda. Ziyorat qiluvchilar orasida nafaqat O‘zbekiston, balki Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston Respublikalari fuqarolari ham ko‘pchilikni tashkil etmoqda. Bu esa hududlarda joylashgan ziyoratgoh va qadamjolarni bugungi kun talablari darajasida ta'mirlash va obodonlashtirishni taqoza etmoqda.

Tarixiy obidalar har bir xalqning milliy qadriyatlarini moddiy va ma'naviy madaniyatini o‘zida mujassam etgan muqaddas joylar sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Inson ongida ma'naviy qarashlarni shakllantirish va rivojlantirishda, uni kishilar qalbiga singdirishda tarixiy-madaniy yodgorliklarning o'rni katta. Boshqa hududlarda bo'lgani kabi, Jizzax vohasida ham tarixiy obidalar hozirgi paytda arxeologik yodgorlik sifatida qisman o'rganilgan tarixiy ob'ektlar, ziyoratgohlar asosan avliyolar, muqaddas sanalgan predmetlar, tabiiy-geografik ob'ektlar, hayvonlar kulti va ularni muqaddaslashtirish hamda tabiat mo‘jizalari bilan bog'liq holda shakllangan. Muqaddas mozorlarning ba'zilari islomdan avvalgi mahalliy kul'tlar va islom dinini yoygan sahabalar hamda din ravnaq topgach, shu zaminda yashab o'tgan avliyolar, ularning yaqinlari bilan bog'liqdir.

## Тарих ва Жамият илмий журнали

Muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlarni tasniflash borasida turli qarashlar va yondashuvlar mavjud. Jumladan, shu yo‘nalishda tadqiqot olib borgan olimlardan N. Abdulahatov Farg‘ona vodiysida mavjud bo‘lgan muqaddas qadamjolarning geografik joylashuviga ko‘ra to‘rt guruhga ajratgan bo‘lsa (Marg‘ilon, Qo‘qon, Farg‘ona va Sux hududlariga xos ziyoratgohlari), Z. Abidova esa Xorazm vohasiga doir ziyoratgohlarning tarixiy kelib chiqishiga e’tibor qaratgan holda sakkiz guruhga bo‘lib tasniflagan (**payg‘ambarlar nomi bilan ataladigan, sahabalar va ularning izdoshlari bilan bog‘liq, turli kasblarning homiy pirlari nomlari bilan hamda tabiat kuchlari bilan bog‘liq bo‘lgan ziyoratgohlari**).

Jizzax vohasi hududidagi muqaddas qadamjo va ziyoratgohlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan F.Sh. Aqchaev ularni quyidagicha tasniflagan:

1. Avliyolar va diniy ulamolar bilan bog‘liq ziyoratgohlari;
2. Tabiat mo‘jizaci va geografik ob’ektlar bilan bog‘liq ziyoratgohlari;
3. Hayvon kulti va ularni muqaddaslashtirish bilan bog‘liq ziyoratgohlari.

Avliyolar va diniy ulamolar bilan bog‘liq ziyoratgohlari. Jizzax vohasida avliyolar nomi bilan ataluvchi bir qancha ziyoratgohlari mavjud bo‘lib, ularning aksariyati nafaqat mahalliy aholi o‘rtasida, balki qo‘shni respublikalarda ham mashhurdir.

Biz hozir sizlarga Avliyolar va diniy ulamolar bilan bog‘liq ziyoratgohlari haqida ma’lumot berib o’tishni lozim topdik:

- “*Qulfisar ota*” ziyoratgohi. Sharof Rashidov tumanining Chimqo‘rg‘on mavzeida joylashgan bo‘lib, ziyoratgohning asosini tashkil etuvchi qabrning uzunligi 12-13 metrni tashkil etadi. Mahalliy aholi ta’rificha, mazkur qabrdagi avliyoning boshi qulflab ko‘milgan. Shuning uchun qadamjoning nomi “Qulfisar” ya’ni, “qulflab ko‘milgan bosh” degan ma’noni bildiradi<sup>1</sup>.

Tadqiqotchi F.Aqchaevning yozishicha, ziyoratgoh joylashgan hudud geografiyasi va tarixiy o‘rniga e’tibor bersak ikkinchi ta’rif haqiqatga yaqindir<sup>2</sup>. Bugungi kunda bu ziyoratgohga nafaqat mahalliy aholi, balki qo‘shni respublikalar, jumladan Qozog‘iston respublikasidan ko‘plab ziyoratchilar tashrif buyurishadi. Bu yerga ziyoratga keluvchilar asosan, ajdodlar ruhini xotirlash, bahor faslida chorvadorlar uchun yilning yaxshi kelishi va yil davomida oila a’zolarining sog‘-salomat bo‘lishi uchun qurbanlik qilishib, yaratgandan madad istab keladilar.

- *Xo‘jamushkent ota ziyoratgohi*. Yangiobod tumanidagi mazkur ziyorat manzili vohadagi avliyolar nomi bilan bog‘liq eng yirik ziyoratgohlardan biri hisoblanadi. Mahalliy aholi orasida ziyoratgohning paydo bo‘lishi va nomlanishi

<sup>1</sup> Оға Бургутли. Жиззах вилояти зиёратгоҳлари. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 37.

<sup>2</sup> Ақчаев Ф.Ш. Жиззах воҳаси муқаддас қадамжолари ва зиёратгоҳлари. тар. фан. фал. док. (PhD) учун ёзилган дисс. автореф. – Самарқанд, 2020

## Тарих ва Жамият илмий журнали

Xo‘ja ibn Isoq shaxsi bilan bog‘lanadi<sup>3</sup>. Axborotchilarning aytishicha, Xo‘ja ibn Isoq g‘orni mushti bilan urgan va u yerda g‘or paydo bo‘lgan, shu boisdan qishloq va ziyoratgohning nomi “Xo‘jamushkent”dir, deyiladi. “Xo‘jamushkent” atamasi, mushkullarni oson qiluvchi joy, makon, degan ma’noni anglatadi. Xo‘jamushkent ota ziyoratgohi hududida joylashgan muqaddas g‘or va Niyatbuloq, Isitmabuloq, Qo‘tirbuloqqa ziyoratchilar o‘z dardlariga shifo istab, farzand ko‘rish, baxti ochilmagan yigit va qizlar oila qurish niyatida keladi va suvdan ichib, g‘ordagi chillaxonada niyat qilib namoz o‘qib va mato bog‘lashar ekan.

- *Sa‘d ibn Abu Vaqqos ziyoratgohi*. G‘allaorol tumanida joylashgan mazkur muqaddas qadamjoga nomi berilgan Sa‘d ibn Abu Vaqqos shaxsiyati mavjud adabiyotlarda qayd qilinishicha, bu shaxs birinchilardan bo‘lib islom dinini qabul qilgan makkalik musulmonlardan bo‘lib, hayotligidayoq jannat bashorat qilingan o‘n sahobalardan biri hisoblanadi. Ziyoratgohning tarkibiy qismida mashhur buloq joylashgan bo‘lib, u yerda “muqaddas baliqlar”ni, jumladan, O‘zbekiston “Qizil kitobi”ga kiritilgan relikt qora baliqlarini ko‘rish mumkin. Qadamjodagi buloq suviga turli kasalliklarga davo sifatida qaralib, befarzand ziyoratchilar muqaddas qabrni tavof qiladilar va atrofini supirishib, tuprog‘ini o‘zları bilan olib ketadilar. Bundan tashqari ziyoratgohga asosan qassoblik hunari bilan shug‘ullanuvchi kishilar hamda erkak ziyoratchilar turli sabablarga ko‘ra ko‘proq tashrif buyurishlarini ko‘rish mumkin.

- *Balogardon bobo qadamjosi*. Yangiobod tumanida joylashgan ushbu qadamjo Naqshbandiya tariqatining asoschisi Bahovuddin Naqshbandiy nomi bilan bog‘liq bo‘lib, rivoyatlarga ko‘ra Bahovuddin Naqshband vafot etganda turli mintaqalardan dafn marosimida ishtirok etish uchun odamlar yig‘iladi. Tobutni juda ko‘plab odamlar ko‘tarishga harakat qilib ko‘rishiadi, ammo hech birlari joyidan qo‘zg‘ata olishmaydi. Shunda ushbu qishloqdan janozaga ishtirok etish uchun borgan odamlarga navbat keladi va ular tobutni hech qanday qiyinchiliksiz ko‘tarishadi. Janoza nomozidan keyin Bahovuddin Naqshbandning yaqinlari uning hassasi va kovushini estalik sifatida Jo‘langar qishlog‘idan kelganlarga beradi. Qishloq odamlari hassa va kovushni olib kelib odamlarning hammasi ham Bahovuddin Naqshband qabrini ziyorat qilish uchun Buxoroga bora olmasliklarini tushunib hassa va kovushni qishloqdagi tepalikka ko‘mishadi va bu joy ziyoratgohga aylanadi.

- Xo‘jai Serob ota ziyoratgohi (Mavlono Muhammad Peshag‘oriy) Zomin tumanining Peshag‘or qishlog‘ida joylashgan muqaddas maskan mahalliy aholi tomonidan “Xo‘jai Serob ota” (suv boshining egasi) deb ataladi. Ziyoratgoh hududida Mavlono Muhammad Pishag‘oriy qabri, u kishiga atab qurilgan maqbara,

<sup>3</sup> Ақчаев Ф. Хўжамушкент ота зиёратгоҳи ҳақида баъзи мулоҳазалар // “Моддий-маънавий мерос ва умумбашарий қадрияллар” мавзусидаги Республика илмий-амалий анжумани материаллари тўплами. –Тошкент. 2015.

## Тарих ва Жамият илмий журнали

masjid va muqaddas buloqlar mavjud. Ushbu ziyoratgohga kishilar asosan farzand ko‘rish, turli xil kasalliklarga davo topish hamda ota-bobolarining ziyorat maskani bo‘lganligi uchun oilaning an’anasini davom ettirish maqsadida kelishadi. Shuningdek, ziyoratgohdagi buloqlar yonida yaqin atrofdagi qishloqlar aholisi bahor faslida qurbanliklar qilib “yil boshi” marosimini o‘tkazadi.

- Changovul ota ziyoratgohi. Yangiobod tumanidagi mazkur ziyoratgoh islam olamidagi mashhur din peshvolaridan biri Xoja Yusuf Hamadoniyning qadami yetgan joy sifatida ulug‘lanadi. Ziyoratgohga yoz oylari nafaqat viloyat balki respublikamizning turli hududlaridan ziyoratchilar tashrif buyurishadi. Bu joyga ziyoratchilar asosan farzand ko‘rish maqsadida kelib qo‘y va echkilarni qurbanlik keltirib turli ko‘rinishdagi ehsон marosimlarini o‘tkazishadi.

- *Xoja Shohimardon Qutlug‘xon Baxodir Sherdor ziyoratgohi.* Zomin tumanidagi mazkur ziyoratgoh to‘g‘risida mahalliy aholining bergan ma’lumotlariga ko‘ra Xoja Shohimardon Qutlug‘xon Baxodir Sherdor asli kelib chiqishi Afg‘onistonning Balx viloyatidagi Sancharak qishlog‘idan bo‘lgan. Ushbu ziyoratgohga nomi berilgan insonning avliyolik karomatlari xususida mahalliy aholi orasida bir qancha rivoyatlar saqlanib qolgan. Ushbu ziyoratgohga asosan farzand ko‘rmagan va turli kasalliklarga chalingan kishilar kelib turli ko‘rinishdagi marosimlarni o‘tkazib ketishadi. Ziyoratchilarning asosiy qismi o‘zbeklarning Turkman urug‘i vakillaridir.

- Jondahor ota ziyoratgohi. Forish tumani Garasha qishlog‘i qabristonida dafn qilingan avliyoning asl ismi Muhammad Sharif (taxallusi “Gireh kushod”-“tugunlarni”, “tilsimlarni yechuvchi”) bo‘lgan. Odatda maqbara, masjidlar peshtoqidagi tilsimiy, islimiyl naqshlarni o‘qib, ma’nosini ochuvchi kishilarga “girih” nisbati berilgan. Aslida “girih” so‘zining ma’nosи “muammo”, “tugun”, “chigal” ma’nolarida qo‘llanib, me’morchilik va badiiy hunarmandchilikda keng qo‘llanilgan naqsh turidir.

- “Malik ota” ziyoratgohi. Mazkur ziyoratgoh Sh.Rashidov tumani Ravot QFY, Sug‘unboy qishlog‘ida joylashgan bo‘lib, mahalliy aholi tomonidan hashar yo‘li bilan eski xonaqoh o‘rnida 2017 yilda yangidan kichik maqbara qurilgan. O‘shbu ziyoratgohga vohada istiqomat qiluvchi o‘zbeklarning qirq urug‘i vakillari o‘zlarining homiy avliyosi sifatida, shuningdek chilla bilan bog‘liq marosimlarini boshlashdan avval va tugagandan so‘ng kelishadi.

- Sovruk ota ziyoratgohi. G‘allaorol tumani Sovruk ota qishlog‘idagi qabriston hududida joylashgan bo‘lib, ziyoratgohda ramziy qabr ustida maqbara bunyod etilgan. Sovruksoyning o‘ng tarafida muqaddas sanalgan asosan qutirish kasalligini davolovchi buloq va chap qismida ruhiy tushkinliklardan forig‘ qiluvchi afsonaviy teshiktosh mavjud. Mahalliy aholi ziyoratgohni So‘fiyon Savriy bilan,

## Тарих ва Жамият илмий журнали

muqaddas buloqni esa Nurota ziyyaratgohi bulog‘i bilan bog‘liqligi borligiga ishonishadi.

- Sayfin ota ziyyaratgohi. G‘allaorol tumanining Sayfin ota qishlog‘idagi eski qabriston hududida joylashgan bo‘lib, uni asosini beshta naqshinkor bezaklar bilan bezatilgan va arabiylar yozuvlar bitilgan katta marmartosh, bir nechta kichik qabrtoshlar tashkil etadi. Beshbuloq soyining o‘ng tomonida joylashgan ushbu qabrtoshlardagi yozuvlar Jizzax davlat pedagogika institutining sharqshunos mutaxassislari tomonidan o‘qib tarjima qilinganda, Sayfin yoki Sayfiddin, degan ism tilga olinmagan. Bu shundan dalolat beradiki Sayfiddin biror bir kishining ismi emas, balki laqabi yoki unvonidir. Sayfiddin so‘zi arabchadan tarjima qilinganda “dinning qilichi”, degan ma’noni anglatadi. Ta’kidlash joizki Sayfin ota qishlog‘i hududi va uning atrofidan o‘ndan ortiq arxeologiya yodgorliklari topilgan. Aksariyati milodiy IV-V asrlardan XV-XVI asrlarga qadar faoliyat ko‘rsatgan ushbu inshoatlar qadimda qal’a, qo‘rg‘on, karvonsaroy vazifasini bajargan. Bu esa, hozirgi Sayfin ota qishlog‘i hududida azaldan diniy-ruhoniy hayot bilan bog‘liq turli tasavvurlarni shakllanishiga sabab bo‘lgan.

- G‘o‘bdin ota ziyyaratgohi. G‘allaorol tumani G‘o‘bdin QFY hududida, qishloqning G‘o‘bdin tog‘iga qarab boraverishdagi tog‘ oralig‘i qismida joylashgan. Qabristondagi eski qabrlar ustida yigirmaga yaqin har xil ko‘rinishdagi va kattalikdagi marmar qabrtoshlar bugungi kungacha saqlanib qolgan. Ularda arab alifbosidagi Qur‘on oyatlari bitilishi bilan bir qatorda sanalar ham ko‘rsatilgan. O‘zbekiston Musulmonlar idorasi xodimi Muslim Ataev tomonidan 2014 yilda chop etilgan “Jizzax allomalari” nomli kitobida olti nafar G‘o‘bdiniy nisbasi bilan tarixda qolgan allomalar to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

- O‘samat ota ziyyaratgohi. Baxmal tumanida joylashgan “O‘samat ota” ziyyaratgohi o‘rta asrlar musulmon sharqining mashhur olimlaridan biri bo‘lgan Muhammad ibn Abdulhamid Usmandiy Samarqandiy nomi bilan bog‘liq. Yozma manbalarda alloma tug‘ilib o‘sgan joyning “Asmand” yoki “Usmand”, deb nomlanishi bilan bog‘liq ko‘pgina ixtiloflar mavjudligi keltirilgan. Ba’zi olimlar bu joy “Asmand”, deb nomlangan va allomaning nisbasi Asmandiy bo‘lgan, deb keltirishsa, boshqalari qishloqning nomini “Usmand”, yana ba’zilari esa “Samand” shaklida bayon etganlar. Mahalliy aholi O‘samat ota ziyyaratgohiga turli mushkulotlardan xalos bo‘lish, ishlari baroridan kelishlari uchun hamda o‘tganlar xotirasini yod etish uchun tashrif buyuradilar.

Bugungi kunda bu ziyyaratgohlarni obod etish ishlariga alohida e’tibor qaratilayotganligiga alohida urg‘u berishimiz mumkin. Jizzax vohasidagi 300 dan ziyod madaniy-meros ob’ektlarning umumiy va sanitariya-gigiena talablariga mosligi viloyat hokimligi tomonidan tuzilgan Komissiya hamda O‘zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi vakillari tomonidan o‘rganib chiqilgan. Ulardan 37

## Тарих ва Жамият илмий журнали

tasi qayta qurilib, arxitektura me'yoriy talablarga moslashtirilgan. 2018 yilda jami 26 ta loyihalar ishga tushirilishi rejalashtirilgan bo'lib, ularning umumiy qiymati 85,1 mldr so'mdan ortiqni tashkil qiladi. Ushbu loyihalarni ishga tushirilishi natijasida 300 ga qin ish o'rinnari yaratilishi ko'zda tutilgan.

Ayniqsa vohadagi Xo'ja Bog'bon ota, O'smat ota, Novqa ota, Sayfin ota, Archamozor ota, G'ubdun ota, Parpi oyim, Qoplon ota ziyoratgohlarida imkon darajasida ta'mirlash obodonlashtirish ishlari amalga oshirilayotgan bo'lsada, hali hanuzgacha ziyoratchilar uchun yetarli shart sharoitlar yaratib berilmagan. Ayrim ziyoratgohlar shunchaki odamlarning taom tayyorlab, xordiq chiqarish maskaniga aylanib qolgan. Vaholanki, diniy kitoblarda yozilishicha, "Mozorlarda va ziyoratgohlarda ko'pchilik bo'lib taom pishirib yeyish na diniy va na milliy odoblardan birortasiga to'g'ri kelmaydi. Mozorga ziyorat qilib, ibrat olish va qabrdagilarning haqlariga duo qilish uchun boriladi. Taom yeyish uchun emas". Shuningdek, turli ziyoratgohlar tarixi, ulardagi obektlar haqidagi umumiy ma'lumotlar qayd qilingan yo'l ko'rsatgichlar, reklama pannolari hamda ushbu ziyoratgohlar haqida ma'lumot beruvchi kitoblar va turli boshqa adabiyotlar bilan ta'minlanishi qoniqarli darajada emas.

Mazkur bo'limda qayd etilgan fikr mulohazalarning yakuni sifatida, vohadagi moddiy-madaniy meros ob'ektlari, xususan ziyoratgohlar holatini yanada yaxshilash va mavjud muammolarni hal etish yuzasidan ayrim taklif va mulohazalarni berishni lozim topdik. Ular quyidagilar:

- birinchidan, vohadagi aksariyat ziyoratgohlarga olib boruvchi yo'l tarmoqlari, ayniqsa avtomobil yo'llarini ta'mirlash ishlariga viloyat hokimligi, xomiy tashkilotlar, shuningdek Respublika "Vaqf" xayriya jamoat fondi mablag'larining bir qismini yo'naltirish zarur;

- ikkinchidan, ziyoratgohlarga olib boruvchi yo'llarga yo'l ko'rsatkichlarini o'rnatish va reklama pannolarini joylashtirish lozim;

- uchinchidan, ziyoratgohlarda ziyoratchilar va mehmonlar uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish, qurilish obodonlashtirish ishlarini nazorat qilishni, bu borada viloyat musulmonlari idorasi va madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish Davlat inspeksiysi faoliyatini kuchaytirish lozim. Vaholanki, bugungi kunda ziyoratgohlarda amalga oshirilayotgan qurilish obodonlashtirish ishlari, jumladan, mablag'larni manzilli va maqsadli sarflanishini har bir ziyoratgoh ma'muriyati o'zicha hal qilib kelmoqda.

- to'rtinchidan, ziyoratgohlarga olib boruvchi serqatnov yo'llarni yoritish uskunalarini bilan jihozlash va tadbirkorlarni jalb qilgan holda yoqilg'i quyish va umumiy ovqatlanish shoxobchalarini tashkil qilish hamda ularda turistlar bilan ish yuritish jarayonini to'g'ri tashkil qilish lozim.

## Тарих ва Жамият илмий журнали

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida Jizzax vohasi ziyoratgohlarini asrash, ta'mirlash, obodonlashtirish va kelajak avlodlarga yetkazish masalasiga imkon darajasida e'tibor qaratib kelinayotganligining guvohi bo'ldik. Ammo, voha hududidagi ziyoratgohlarning o'ziga xosligi, etnik, ijtimoiy xususiyatlari, arxitekturasi, geografik joylashuvi va milliy kaloriti bilan ajralib turishini inobatga olgan holda, ularni asrab-avaylash borasida viloyat hokimligi, madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish Davlat inspeksiyasi viloyat bo'limi, O'zbekiston respublikasi turizmni rivojlantirish Davlat Qo'mitasi viloyat bo'limi, O'zbekiston Musulmonlari idorasi viloyat vakilligi tomonidan hamkorlikda alohida chora tadbirlar rejasini ishlab chiqib, yuqorida ta'kidlangan yechimini kutayotgan muammolarni bartaraf etish kechiktirib bo'lmaydigan masala hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 29-iyuldagagi 269-sonli "Madaniy meros obektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori// [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
2. Abdulahatov N. Farg'ona vodiysi ziyoratgohlari va qadamjolari (Farg'ona viloyati misolida): Tar.fan. nom. uchun diss. – Toshkent, 2006. – B. 14.
3. Abidova Z. Xorazm vohasi ziyoratgohlari va qadamjolari: tar. fan. bo'yicha fal. dok. uchun diss. avtoref. – Toshkent. 2018,– B. 16.
4. Aqchaev F.SH. Jizzax vohasi muqaddas qadamjolari va ziyoratgohlari. tar. fan. fal. dok. (PhD) uchun yozilgan diss. avtoref. – Samarqand, 2020.
5. Ahmad Lutfiy. Saodat asri qissasi. Intizor kutilgan tong: 1-qism. – Toshkent: SHarq, 2004. – B. 243–244.
6. Pardayev M. "Jizzax va Sirdaryo viloyatlari arxeologiya merosi ob'ektlarining majmuasini tuzish va ularning tarixiy-geografik xaritasini yaratish" loyiha bo'yicha hisobot / O'zRFA Arxeologiya instituti arxiv. Samarqand, 2017. FA-AI-G009.P3-2014-0913000301.
7. Atayev M. Jizzax allomalari. –Toshkent: Adib, 2014.-B. 89-90
8. Abdullohamid Sa'd. O'rta Osiyo olimlari qomusi. – Toshkent: Imom Buxoriy respublika ilmiy-ma'rifiy markazi, 2007. – B. 35.
9. Jizzax viloyati hokimi E.Salievning "Xorijiy turistlar oqimini ko'paytirish va ichki turizmni yanada rivojlantirish, turizm xizmatlarini yaxshilash va turlarini kengaytirish bo'yicha ko'rيلayotgan chora-tadbirlar natijadorligi" yuzasidan ma'ruzasi. 2018 yil, 23-may// [www.Jizzax.uz](http://www.Jizzax.uz)